

Gavhar Rahimova “Qizlar fronti” brigadasini tuzdi, Lizaxonim shu brigadaning baletmeysteri sifatida urush yillarini front yo’llarida o’tkazib, galabani Berlinda kutib, vatanga qaytishdi.

Qoraqalpoq xalqining ijodiyoti minglab hikoyalari, ertaklar, afsonalarga juda ham boy. Qoraqalpoq xalqi gapga azaldan chechanligi bilan, shoironlik bilan, musiqaviylik bilan ajralib turadi. Yanada xilma xil hunarmandchilik, matochilik, kashtachilik mavjud. Qoraqalpoqlarning o’ziga xos yashash tarzidagi madaniyati: urf-odatlar, o’yinlar, bayramdagi chiqishlar, ko’pchilikni o’ziga tortadi, lekin qoraqalpoq xalq san’atida xalq teatri yo’q edi va xalq raqslari yo’q edi. Buni sabablari shundaki, qoraqalpoqning hayoti ancha murakkab, yarim ko’chmanchilik hayot: boshqa qabilalar bilan urushlar, o’zlarining qabilasini chiqisha olmasligi. Kambag’allar va boylar bilan qarama-qarshiligi, yaylovlarda, qahraton sovuqlarda yashash, Amudaryo toshqinlaridan halok bo’lish va hokazo.

Raqs paydo bo’lishi uchun ko’pchilik bo’lib o’tirishi va hayot kechirishi kerak. Raqsni paydo bo’lishi shu xalqning mehnat turlari bilan bog’liqidir. Ish jarayonida har kuni takrorlanadigan harakatlarda birinchi raqs harakati kelib chiqadi: chorvadorlarda, dehqonlarda, baliqchilarda, hunarmanlarning yaratayotgan har bitta namunasida, har kungi bajarilayotgan harakatlarda bir usul bor. Bu usul har bir ish turida bor. Lekin hayotning o’zgaruvchanligida bu harakatlar yo’qolgan, esdan chiqqan. Bunaqa hol ko’chmanchilik tarzida yashagan xalqlarda mavjud. Qoraqalpoqlarda plastika bor. Oddiy suhbat paytida yoki hikoya aytayotganda, yoki qo’shiq ijrosida qoraqalpoqlarga xos harakatlar bor. Urf-odatlarni bajarayotganda ham faqat qoraqalpoqlarga xos chiroylit qo’l, bosh yoki gavda harakatlari bor. Ana shu narsalarni bori qoraqalpoq raqsini tug’ilishi, rivojlanishi va o’zlashtirish juda ham qisqa vaqt oldi. 1956 yil yoz oylaridan 1959 yilning qishigacha.

Qoraqalpoq raqsini sahnalashtirish ko’p bo’lgan. 30-yilda Qoraqalpoq radio qoshida “Ashula va raqs ansambl” tuzildi, lekin raqsini sahnaga olib chiqisha olmadidi. 40-yillarda ham ko’p harakatlar qilindi. 1944-45 yillarda o’zbek baletmeysteri Ali Ardobus Ibragimov bir nechta raqslarni professional va havaskor ansamlarga sahnalashtirdi. Raqlar professional darajada yaratilgan, lekin qoraqalpoq xalqi qabul qilmadi.

Birinchi navbatda raqsning usullari o’sha xalqning mehnat usullari, buni unutmaslik kerak. 1951 yili baletmeyster Lizaxonumga qoraqalpoq raqsini sahnalashtirishni taklif etilganda Lizaxonum to’y mavzusini tanladi. Lekin raqs sahnalashtirish uchun raqs harakatlari kerak, ular esa yo’q. O’shanda Lizaxonum o’ziga maqsad qo’ydilar: qoraqalpoqlarning hayot tarzini va tilini o’rganish, uning uchun qoraqalpoq oilasida yashab, ular bilan bordi-keldi qilib, urf- odatlarini o’rganib, maraka to’ylariga qatnashib keldilar. Qoraqalpoq ayollar hech qachon paranji kiymagan. To’ylarda ayollar boshiga “jekle” va “kiyimeshek” bosh kiyimlarini kiyishgan. Yuzlari esa doim ochiq bo’lgan. O’tirishmalarda qizlarni “jenge” boshqaradi, yigitlarni esa “jenge ag’a”. “Jenge” tanlagan qiz qo’lidagi piyola choy bilan sekin yurib “jenge” ko’rsatgan yigitga o’sha choyni yerga qarab, salom bilan egilib yigitga uzatadi. Yigit esa choyni ichib, piyolaga shirinlik solib qizga qaytaradi. Lekin piyolani yigitdan olish juda ham qiyin bo’ladi. Amallab piyolani olgan taqdirda ham yigit qizning qo’lidan tortib olishi mumkin. Bu odatning qiziqligi shundaki, yigit nima qilsa ham, yigitlarning kulishiga ham e’tibor bermasdan, qiz pinagini buzmasdan, jaxlini

chiqarmasdan xotirjamlik bilan yo'lida davom etib, piyolani qaytarib olish kerak. Qiz shuning uddasidan chiqa olsa, yigitlar “jenge ag'a” boshchiligidagi qizlarga shirinlik olib berishadi. Bundan keyin yigitlar va qizlar orasida aytishuv boshlanadi, ya'ni so'z payrovi. Shunga o'xshash chiroylar odamlar to'ylarni qiziqarli o'tishiga sabab bo'ladi. Misol tariqasida yana bitta odatni aytib bersak.

Qoraqalpoqlar mehmono'st xalq va qadrli mehmonning kelishiga qo'y so'yishadi. Pishirilgan qo'y kallasini eng abro'ysi mehmon oldiga qo'yishadi. Mehmon kallani bo'lib, mehmonlarga ulashadi. Eng qiziqarlisiga shundaki har bitta bo'lakni hazil so'zlar bilan taqdim etish kerak.

Lizaxonum ana shunday odatlarni o'rghanadilar, bayramlarda har bir ish jarayonlaridagi harakatlarni o'rghanadi va shu ish jarayonida kiyilgan kiyim ham muhimdir. Uzun ko'ylak kiyigan ayol, yengi ham uzun, barmoqlari ko'rinaslik kerak, ko'ylak ustidan uzunligi tizzagacha bo'ladigan kamzul kiyiladi. Boshiga esa “basorau” uraladi alokida “medali” matodan, matoning chetida kizik chizik buladi. Bunaka “basorau” kiyganda bosh sal yonboshiga egilib turadi. O'tirganda ayollar boshini to'g'ri ushlab sekin bitta tizzaga o'tiradi.

Hayvonot olamidan ham ko'p harakatlar olish mumkin: uchib yurgan shag'alalar, uzoqda qumliklarda yurayotgan tuyalar karvoni, qamish oralarida yashayotgan qamish mushuklari, barslar va hokazo. Lizaxonum aytishlaricha raqs yaratganda qoraqalpoqning hunarmandchiligi katta yordam bergan. Kumushdan yasalgan go'zal buyumlar: ko'krakka taqiladigan “seykel”, “juzik”, “biluzik”, “sirg'a”, belga osib qo'yiladigan “anormunchoq” juda ham chiroylar bosh kiyim, shlemga o'xshagan “seukele” va orqasida kamzulning uzunligicha “lenta” qadimgi amazonkalarning bosh kiyimiga o'xshagan.

Ko'p qo'l, oyoq harakatlari va raqsning tuzilishlari aynan qadimgi kashtalardan olingan. Ana shunaqa va shunga o'xshash ilmiy ishlar bilan bog'langan edi. 1951 yil Moskvadagi dekadaga tayyorlangan qoraqalpoq to'y marosimi, qo'shiq va raqlar bilan bu nomer Moskvada katta olqishlarga sazovor bo'ldi. 1956 yil iyun oyida qoraqalpoq ashula va raqs ansambl tuzish to'g'risida qaror chiqdi. Bu ishni boshqarishga Lizaxonum Petrosova taklif etildi. Ansambl bo'lgandan keyin katta dastur tayyorlash kerak. Xilma-xil raqlar va yangi qo'shiqlar yaratish lozim edi. Lizaxonum ilmiy ishni davom etib qoraqalpoq tarixini, xayotini yanada chuqurroq o'rghanishga harakat qilib, qoraqalpoq hayotini aks ettiradigani yangi raqlar kashf etdilar.

Birinchi qo'yilgan raqs “Kiygiz ishlab chiqarish”. Qizlar sahnaga etagidagi junlarni olib chiqishadi va yerga tashashadi. Keyin bitta tizzaga o'tirib junni barmoqlar bilan yumshatishadi. O'rnidan turib junni har xil oyoq harakatlari bilan bosishadi.

Keyingi raqs “Baliqchilar”. Bu raqsni yigitlar ijro etadi. Bu raqsda dengizda baliq ovlashda bajarilgan harakatlarning hammasi raqsda ifoda etgan.

Yana bitta erkaklar raqsi “Cho'ponlar”. Cho'ponlarning og'ir mehnatlari aks etgan.

Qizlar raqsi “Amudaryo” zamonaviy raqs, vals usulida, musiqasini taniqli kompozitor Japaq Shamuratov bastalagan.

Dasturda alohida o'rin “Ayqulash” nomli musiqiy qo'shiq va raqs kompozitsiyasi egallaydi. Qizlar va yigitlar ijrosida. Keyinchalik ansambl shu nom bilan atalgan.

1959 yili Moskvada o'tkazilgan dekadaga tayyorgarlik paytida qoraqalpoq san'ati uchun mutlaqo yangi janr paydo bo'ldi. Xor, ya'ni qo'shiqlarni jamoa bilan ijro etish.

Qoraqalpog'istonidagi birinchi xormeyster Qoraqalpoq xalq artisti Sonya Davletkeldiyeva rahbarlik qildilar. Umuman olganda ansambl tarkibida xor, umumiy raqslar, yakka raqslar, yakka qo'shiq, duet, laparlar, sozandalar ansamli mavjud bo'lgan.

Ansambl tuzish oson bo'lindi, chunki professional ashulachilar, sozandalar, raqqosalar yo'q edi, shuning uchun yangi ansambl asosan havaskorlar orasidan tanlab olingan yoshlardan iborat edi.

Keyinchalik shu yoshlardan ko'p xizmat ko'rsatkan va xalq artistlari yetilib chiqdi.

Elizaveta Artemovna Petrosova – o'zbek raqsini sahnaga olib chiqqan, o'zbek xalq artisti, Mehnat qahramoni, Usta Olim Komilov shogirdi Lizaxonum Qoraqalpoq raqsini yaratib, qoraqalpoq rake ansamblini tuzib, juda ham ko'p xizmat ko'rsatgan va xalq artistlarini tarbiyalab, yanada qoraqalpoq raqsini mакtabini yaratib, kelajak avlodlarga "Qoraqalpoq raqsi" darsligini yozib ketdilar.

Mening ustozim Liza opam oilasida mehribon ona, mehribon buvi, shogirdlariga nisbatan ham onalik, ham mehribon ustozlik qilganlar.

Lizaxonim umr bo'yи mehnat qilib o'tdilar va doimo o'zlarining ishchanligi va kamtarinligi bilan ajralib turar edi.